

**“INGLIZ TILINI O’RGANISHDAGI MUAMMOLAR”**

*GDPI dotsenti, PhD*

**Djurayev Ikrom**

*GDPI talabasi*

**Muhiddin Safarov**

**Kalit so’zlar:** C1, B2, IELTS, Multi-level, Listening va Reading.

Bizga ma’lumki bugungu kunda ingliz tili o’rganuvchilar soni ortib bormoqda. Negaki, O’zbekistonda yoshlarni ingliz tilini o’rganishi uchun judda ko’p sharoitlar va talablar bor. Agar o’qtuvchi bo’lsangiz va sizda C1 darajasidagi milliy sertifikat yoki shunga teng xalqaro sertifikat bo’lsa, olayotgan maoshingizga 50 % ustama ya’ni qo’shimcha pul mablag’i beriladi. Yoki agar siz abiturent bo’lsangiz va sizda B2 milliy sertifikari yoki shunga teng xalqaro sertifikat bo’lsa, ingliz tili blokinggizdagi testning maksimal bali berilad va siz bu testni ishlashdan ozod etilasiz. Ma’lumot uchun: agar ingliz tili sizning asosiy blokingiz bo’lsa sizga 30 ta savol 93 ball beriladi. Agar ikkinchi blokingiz ingliz bo’lsa sizga 30 ta savol uchun 66 ball beriladi va siz bu blokni ishlashdan ozod etilasiz.

Buncha imkoniyatlarni bilgandan so’ng insonni ingliz tilini o’rganishga bo’lgan qiziqishi yanada ortadi. Lekin ba’zi insonlar yani ingliz tilini o’rganuvchilar bu tilni o’rganish davomida ko’plab xatolarni qayta va qayta qilishadi. O’ylaymanki, bugungi maqola o’sha muammolarni to’liq yoritib beradi va ularga yechim bo’la oladigan bir qancha yo’llarni ko’rsatib beradi.

**NOTO’G’RI MAQSAD**

Ko’plab ingliz tilini learners ya’ni o’rganuvchilar qiladigan xatolardan biri bu noto’gri maqsad qo’yish. Ular ingliz tilini faqat IELTSdan 5.5 ball olish uchun yoki Multi-leveledan 51 ball bilan B2 olish uchun o’rganadilar. Bu ingliz tilini o’rganish uchun qo’yilgan maqsad emas. IELTS 5.5 ball va Multi-level 51 ball bilan olingan B2 sertifikati, bu, shunchaki, sizga beriladigan 93 ball yoki 66 ball ning so’raladigan eng kichik sharti. Yani siz IELTS 5.5 olasiz va sizning yo’nalishingizga qarab 93 yoki 66 ball beriladi. Ho’p! Ball berar ekanku, “buni nimasi yomon?” deyishga shoshilmang! Inson psixologiyasida shunday narsa borki, inson qo’yan maqsadiga yarasha harakat qiladi. Ya’ni shunchaki IELTS 5.5 yoki 51 ballik B2 sertifikati yetadi degan bola va haqiqatdan ham ingliz tilini o’rganishga bel bog’lagan bola o’rtasida osmon va yerchalik farq bo’ladi. Va yana shuni aytish lozimki, ko’plab yuqoridagi misol kabi o’ziga noto’gri maqsad qoygan bollar ba’zan o’sha IELTS 5.5 ballni ham qo’lga kirita olmaydi.

Shuning uchun inson doim o’ziga ishonishi va o’zi uchun eng yaxshisini tillashi kerak. Misol uchun men, 55 ball bilan qo’lga kiritilga B2 serifikati egasiman. Kimdir aytishi mumkin: “Bu ham 51 ball bilan deyarli tengku”. Ha to’g’ri bu ball zo’r emas. Lekin gap bunda ham emas. Men bu imtihonni topshirishdan oldin IELTS mock exam topshirganman.

Qo'shimcha malumot uchun: mock exam – bu haqiqiy IELTS imtihonida tushgan va tushishi mumkin bo'lgan savollarga o'zini darajasini bilish uchun real imtohondan oldin topshirish mumkin bo'lgan imtohon turi. Natijam judda yomon chiqdi.

Mukhriddin Safarov's mock result

Listening – 10/40 ( imtihoning tinglab tushunish qismi "listening" deyiladi )

Reading – 9/40 ( imtihoning o'qib tushunish qismi "reading" deyiladi )

Bu esa IELTS 3.5 ball degani

Lekin maqsadimni to'gri qo'ygan edim. Yani maqsadim IELTS 5.5 emas edi. Va niyoyat B2 sertifikatini qo'lga kiritdim. Shuning uchun har doim maqsadni oldinga qo'yish kerak. Agar maqsadingiz shunchaki IELTS 5.5 bo'lsa, "tabrikayman" sizning maqsadingiz ingliz tilini o'rganish emas ekan.

### **FAKE IELTS TEACHERS**

Siz o'zingizga to'gri maqsad qo'ydingiz. IELTS 5.5 emas, balki IELTS + 7.0 va kamida C1 darajani olishni o'zingizning asosiy maqsadingiz dedingiz va IELTS dan 8.0 ball olgan o'qtuvchiga bordingiz. Borsangiz u o'qtuvchi hech bunaqa natijaga erishgan odamga o'xshamayapti. Keyin bilsangiz bu o'qtuvchi haligi o'ziga IELTS 5.5 yetadi degan odam bo'lib chiqdi. Shunda bu o'qtuvchiga to'lagan pullingizga achinasizmi yoki sarflagan vaqtingizga? Ha ikkisiga ham achinasiz. Shuning uchun, hurmatli do'stlar, qaysi bir o'qtuvchingiz IELTSdan yuqori ball olganini aytsa, shunday ishonib uning o'quv kurslarini olishga shoshilmang. Shunchaki real sertifikatni so'rang, agar haqiqatdan ham bu ball haqoni bo'lsa u sizga sertifikatni ko'rsatadi. Lekin qandaydir bahonalar qilsa, sandiqda, yonib ketgan, yo'qotib qoyganman desa bu o'qtuvchini olgan sertifikati rost bo'lishiga ishonish qiyin. Haqiqiy ball egasi, uni yashirmaydi. Yolg'on o'qtuvchining tarbiyalagan shogirdlari yaxshi bo'lishi bu dargumon. Ko'p o'quvchilar aynan shu kabi yolg'on o'qtuvchilarga aldanib qolishmoqda. Menimcha, ozgina e'tiborli bo'lsak bu o'zimiz uchun judda foydali bo'lar edi.

Malumot o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, agar kimdir IELTS dan olgan ballini soxtalashtirsa, u inson ikki yil muddatgacha IELTS imtihonini topshirish imkoniyatini cheklashga sabab bo'ladi.

### **SHUNCHAKI MAQSADSIZLIK**

Ko'plab IELTS va Multi-level umuman ingliz tili guruhlardan chetlashtirilayotgan til o'rganuvchilarning asosiy xatosi bu darsga bemaqsad qatnashish. Bu turdag'i o'quvchilar, hattoki, IELTS dan 5.5 ni maqsad qilganlardan ham yomonroq. Negaki ularda hech bo'limasa maqsad bor. Lekin darsga shunchaki kelib ketadiganlar, ba'zan darsga kelib ba'zan kelmay, asosiz sabablar bilan dars qoldiradiganlarda qanday maqsad bo'lishi mumkin? Bu turdag'i o'quvchilarga berilgan uyga vazifa darsga borishidan bir soat oldin esga tushadi va shunday kitobning orqasidagi javoblarni ko'chirish bilan qutilib qolishadi. Eng yomoni bu ular bilan bir yoki ikki marta sodir bo'lmaydi. Bu odat har doim, davomiy tarzda takrorlanadi va oxirida esa ularda natija bo'lmaydi. Hamma ayb esa "o'qtuvchida" bo'ladi va bola yangi

o'qtuvchi qidiradi. Eng qizig'i bola yana o'sha odatini yangi o'qtuvchida sinashda davom etadi.

Boshqa turdag'i o'quvchilar, ular ustozidan kerakli yo'naliш va ko'rsatmalarni olishadi. Lekin ular hech narsa qilishmaydi. Ular shu bilan cheklanadi. Berilgan yo'naliш va ko'rsatmalar go'yoki ustoz aytmagandek va bola shuning uchun qilmagandek bo'lib qolaveradi.

### **COMPARING – SOLISHTIRISH**

Kimningdir qizi IELTSdan 7.5 olibdi, qo'shnimizni bolasi Multi-leveldan 75 ball bilan C1 olibdi, men ham shunaqa katta ball olaman. Bu gap umuman noto'gri. Siz kimdir zo'r ball olgani uchun yuqori ball olishga majbur emassiz. Ingliz tilini o'rganishni boshlaganiningizga ko'p bo'lmadi va darajangiz, ayteylik IELTS 5.5 bo'lib turibdi. Kimdir borib IELTS 8.5 oldi. Siz va uni o'rtasidagi ball shunchaki -3.0 ball emas. Bu 3.0 ballning har bir balli qanchadir vaqt va og'ir mehnatga teng. Siz o'zingizni faqatgina o'zingizga solishtira olasiz. Bir oy oldin, Listeningdan 10 ta savolga javob topayotgan edingiz va hozir esa 15 ta savolga javob topayapsiz. Manashu haqiqiy solishtirish. Bu orqali siz faqatgina o'zingizdagi o'sishni emas, balki qancha mehnat qildingiz va yana qancha mehnat qilishingiz kerak ekanligini bilib olishingiz mumkin.

Ba'zan solishtirish kerak va ba'zan kerak emas. Qachon solishtirish kerak? Qachonki sizda ikkita ingliz tili guruhi bor va birinchi guruhdagi o'quvchilarning darajasi "Advanced" va ikkinchi guruhdagi o'quvchilarning darajasi "Pre-intermediate". Agar e'tibor bersak, birinchi guruhning darajasi ikkinchi guruhdan sezilarli darajada yuqori. Birinchi guruhdagi o'quvchilardan biri unchalik o'zlashtira olmayapti. Guruhga solishtirganda darajasi "Pre-intermediate". Bu bolani guruhini o'zgartirsa bo'ladi. Bu to'gri solishtirish. Lekin, qachon solishtirmaslik kerak? Ko'p o'qtuvchilar bir xil darajadagi o'quvchilarni solishtiriadi. Bu nima degani? Mashq beriladi va birinchi o'quvchi 82 ball ikkinchi o'quvchi esa 84 ballni qo'lga kiritadi. Bundan so'ng esa o'qtuvchi nazlida 84 balni qo'lga kiritgan bola yaxshiroq. Ammo, bu ikki o'quvchining qayt etgan natijasi deyarli bir xil. Umuman olganda bir xil darajadagi o'quvchilarni solishtirish bu yaqqol xato va bundan boshqa narsa emas.